



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 11-mart, № 47 (9218)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI UCHUN KADRLAR TAYYORLASHDA DUAL TA'LIM TIZIMI KENG JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-mart kuni qishloq va suv xo'jaligi uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ko'p sohalarda ilm real hayotdan uzoqlashib ketgani, qishloq va suv xo'jaligida ham ayrim yirik loyihalarni amalga oshirishda ilmiy asoslash va ekspertizaga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani, olimlar hamda tadqiqotchilarning salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani qayd etildi. Natijada ba'zi loyihalar kutilgan samarani bermayotgani ta'kidlandi.

Hozirgi kunda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universitetida 11 mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda, 7 ta fakultet, 37 ta kafedra va 38 ta ta'lim yo'nalishi faoliyat yuritmoqda. Bitiruvchilarning bandlik darajasi 93 foizni tashkil etadi. Universitetda xorijlik talabalar va professor-o'qituvchilarning soni ham izchil oshib bormoqda.

Shu bilan birga, muhandis kadrlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida dual ta'lim tizimini keng joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Taklif etilgan yangi tizimga ko'ra, talabalar 4 kun nazariy bilim oladi, 2 kun ishlab chiqarish korxonalarida haq to'lanadigan amaliyot o'taydi. Jumladan, suv xo'jaligi yo'nalishida suvni tejash va sug'orishni samarali tashkil etish, gidrotexnika hamda gidroenergetika sohasida kanallarni betonlash, smeta tuzish va kichik gidroelektr stansiyalar qurilishida ishtirok etish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash yo'nalishida texnikalarni tayyorlash va hosilni yig'ishtirish ishlarida qatnashish imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimiz suv resurslarining katta qismi transchegaraviy manbalarga bog'liqligi

ko'rsatib o'tildi. Shu bois suv resurslari sohasida diplomat kadrlarni tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri ekan ta'kidlandi.

Universitetda tashkil etilgan "Xalqaro suv diplomatiyasi" magistratura dasturini kengaytirish va davlat granti asosidagi qabul o'rinlarini ko'paytirish taklifi ma'qullandi. Bu dastur orqali qo'shni davlatlar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ko'zda tutilgan.

Taqdimotda universitetning ilmiy-innovatsion salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan yangi tashabbuslar ham ma'lum qilindi. Xususan, dronlardan foydalanib, ekin maydonlarini monitoring qilish, hosildorlikni prognozlashtirish, zararkunandalarga qarshi kurashish kabi xizmatlarni, kosmik monitoring ma'lumotlari asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda universitetda dronlarni boshqarishga o'qitish kurslari joriy etiladi, kosmik tadqiqotlar va sun'iy yo'l doshlar laboratoriyasi, kompleks ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, universitetda raqamli boshqaruv va "KPI" tizimlarini joriy etish, ta'limning uzluksiz "maktab — texnikum — universitet — ishlab chiqarish" zanjiri asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish bo'yicha rejalar ham ma'lum qilindi.

Taqdimot yakunida davlatimiz rahbari qishloq va suv xo'jaligi sohasi uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Inson hayotini, jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarsiz, ularning ezgu fazilatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Biz sizlarning timsolingizda Uchinchi Renessans bunyodkori bo'lib maydonga chiqayotgan 22 millionlik yosh avlodni onalik mehri bilan tarbiyalab, voyaga yetkazgan buyuk bir kuchni ko'ramiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI O'ZBEKISTON AYOLLARI — KUCH, MEHR VA ILHOM TIMSOLI



Dil so'zi

Mart oyi yurtimizga go'zallik va nafosat ruhini olib kirdi. 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kunining bayramona shukhi bahor nafasi bilan uyg'unlashib, butun xalqimizga yanada ko'tarinki ruh, quvonch ulashdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, tadbirkorlik va boshqa ko'plab sohalarda o'zining iste'dodi, zakovati va qat'iyati bilan yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan

ayollarimiz bugun jamiyatimizning eng katta tayanchi, ma'naviy kuchi sifatida e'tirof etilmoqda. Ular mehnati, mehri va matonati bilan oilalarga fayz, jamiyatga baraka olib kirmoqda.

Bayram arafasida Prezidentimizning farmoni va qaroriga muvofiq jamiyatimiz ravnaqi yo'lida sidqidildan xizmat qilib kelayotgan opa-singillarimizdan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Bu e'tirof ularning yillar davomidagi mehnati va iqtidoriga berilgan munosib bahodir. Ayni paytda bu yurtimizda ayol zotiga

bo'lgan yuksak hurmat va e'tiborning yana bir ifodasi.

Shu munosabat bilan poytaxtimizdagi Ko'ksaroy poytaxt g'ohida tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda davlatimizning nufuzli orden va medallari bilan taqdirlangan opa-singillar hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga munosib ko'rilgan iqtidorli qizlar jam bo'ldi.

Tantanali marosimda Prezidentimiz ishtirok etib, yurtimizdagi barcha ayollarni bayram bilan samimiy qutladi. Ularga sihat-salomatlik, baxt-saodat va yangi yutuqlar

tiladi. Mamlakatimiz ravnaqi yo'lida mehnat bilan dong taratayotgan soha fidoiylari, iqtidorli qizlar davlatimiz rahbari qo'lidan yuksak mukofotlarni qabul qilib oldi.

Bu lahzalar zalda o'tirgan har bir inson qalbid alohida hayajon uyg'otdi. Mukofot sohiblarining ko'zlarida quvonch, yuzlarida minnatdorlik va faxr tuyg'usi namoyon edi. Ular uchun bu kun nafaqat katta e'tirof, balki hayotlarida unutilmas, yuraklarda muhrlanib qoladigan qutlug' bir voqeaga aylandi.

4-sahifaga qarang. ➔

QASHQADARYO VILOYATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Qashqadaryo o'zining katta hududi, boy tabiiy resurslari, rivojlangan sanoati, mehnatkash va tadbirkor xalqi bilan ulkan salohiyatga ega ekan ta'kidlandi.

O'tgan yili yalpi hududiy mahsulotda 6,8 foiz, sanoatda 7,2 foiz, xizmatlar sohasida 13,6 foiz, qishloq xo'jaligida 4,3 foizlik o'sish qayd etildi. 2017 — 2025-yillarda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 3,2 barobar o'sib, 26,9 million so'mga yetdi. Ishsizlik va kambag'allik darajasi tegishli ravishda 4,9 va 6,5 foizgacha tushdi.

2026-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida

yangi loyihalarni amalga oshirish hisobidan sanoatda 8,6 foizlik o'sishni ta'minlash, 3,5 milliard dollar investitsiya hisobiga 727 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgani qayd etildi. Natijada viloyat iqtisodiyoti 8,2 foizga, xizmatlar 15,9 foizga, qurilish 13,2 foizga, qishloq xo'jaligi 5,8 foizga o'sishi kutilmoqda.

Sanoatda 1,7 milliard dollarlik 195 ta loyihani ishga tushirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda mikro-sanoat markazlari tashkil etish orqali tarmoqlarda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi qayd etildi. ➔

NEFT-GAZ SOHASIDA ISLOHOTLARNING BORISHI KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga neft va gaz sohasida belgilangan vazifalar ijrosining holati yuzasidan hisobot berildi.

Ma'lumki, joriy yilning 30-yanvar kuni "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish, uglevodorod zaxiralarini kengaytirish va tarmoqni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangandi. 23-fevral kuni esa ushbu topshiriqlarning dastlabki ijrosi ko'rib chiqilib, qator qo'shimcha topshiriqlar berilgan edi.

Bu galgi taqdimotda mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayoni yana bir bor tahlil qilindi.

Neft va gaz sohasida geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, yangi konlarni aniqlash, mavjud quduqlar samaradorligini oshirish va qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirishga alohida to'xtalib o'tildi.

Bu borada soha rahbarlarining joriy yil

boshidan "3D" seysmik qidiruv ishlari 471 kvadrat kilometr hajmda amalga oshirilgani, 11 ta yangi quduq ishga tushirilgani, 20 ta quduqda ta'mirlash ishlari bajarilgani va 5 ta texnologik tadbir amalga oshirilgani to'g'risidagi ma'lumoti ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, sohada operatsion samaradorlikni oshirish, korxonalarining xarajatlarini maqbullashtirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ishlariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar va rejalashtirilgan chora-tadbirlar ijrosini aniq hisob-kitob va qat'iy intizom asosida ta'minlashni davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA.

O'ZARO TAJRIBA ALMASHISH KENGAYTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Ozarbayjon Respublikasi Hisob palatasi raisi Yuygur Gulmamedov bilan uchrashdi.



Uchrashuv

Muloqot davomida ikki davlat Hisob palatalari o'rtasidagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. Qayd etilganidek, imzolangan hamkorlik memorandumini mazkur sohadagi aloqalarni yanada

mustahkamlash va o'zaro tajriba almashishni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hisob palatalari tomonidan olib borilayotgan o'rganish va tahlillar parlament faoliyati bilan uzviy bog'liq ekan, nazorat-tahlil natijalari asosida ta'sirchan parlament nazoratini yo'lga qo'yish davlat dasturlarining samarali ijrosini ta'minlashda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

HUQUQIY NORMALARDA FUQAROLAR MANFAATLARI USTUVOR



Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealarga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida farmatsevtika tarmog'ida ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektorda ilgari surilgan

tashabbuslarning ahamiyati haqida so'z yuritildi. Deputatlar mazkur tarmoqni yanada rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda mahalliy dori vositalari ulushini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani aholini sifatli va arzon dori vositalari bilan ta'minlashda muhim qadam bo'lganligini qayd etishdi. ➔ 2-3

Shukuh

NAVRO'Z NAVOLARI

Bog'lar bahorini sog'indi juda,
Novdalar muzlardan og'rindi juda,
Qishning kerilgani endi behuda,
Har yonda qorlarning suvi oqmoqda,
Navro'z navolari eshik qoqmoqda.

Muloyim maysalar yuzin ochdilar,
Bodom kurtaklari ko'zin ochdilar,
Hatto chumolilar izin ochdilar,
Umri o'tganini qish ham uqmoqda,
Navro'z navolari eshik qoqmoqda.

Momolar sumalak xumoridadir,
Ko'ngillar ko'k somsa iforidadir,
Oshiqlar qo'llari dil toridadir,
Visol onlariga xayol uchmoqda,
Navro'z navolari eshik qoqmoqda.

Ko'ngillar ko'zida olam yam-yashil,
Chunki yo'lga chiqqan ko'klam yam-yashil,
Shoirlar nazdida qalam yam-yashil,
Ilhom oqib kelar jajji irmoqda,
Navro'z navolari eshik qoqmoqda.

Uyg'onsin, bor olam, ellar uyg'onsin,
Yaratmoq ishqida dillar to'lg'onsin,
Yuzlar lovillasin, yuraklar yonsin,
Bahor, baxt dastlab bizga boqmoqda,
Navro'z navolari eshik qoqmoqda.

Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

QASHQADARYO VILOYATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

1 Viloyatda qator yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish rejalari haqida axborot berildi. Jumladan, mato, kiyim-kechak va gigiyenik vositalar, qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalar, elektr avtomobillari uchun quvvatlash stansiyalari, fibrotsementli panellar va devor plitalarini ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Muborak maxsus innovatsion sanoat zonasini va Qarshi "yashil" texnologiyalar sanoat zonasini tashkil etib, 2026-2027-yillarda ularda 1,1 milliard dollardan ziyod bo'lgan 36 ta loyihani amalga oshirish va 6 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan.

Yangi yondashuvlar asosida mahallalarni chuqur va o'rta ixtisoslashtirish, imtiyozli kredit va subsidiyalarni ajratish hisobiga kambag'allikni qisqartirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Xususan, mahallalarda 820 milliard so'mlik kreditlar, 52,3 milliard so'mlik ssuda va subsidiyalarni ajratish, o'zini o'zi band qilganlarni qo'llab-quvvatlash orqali 48 mingta tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi, 31 mingta mikroloyiha amalga oshiriladi.

Natijada 2026-yil yakuniga qadar ishsizlikni 3,2 foizga, kambag'allikni 3 foizga tushirish, bunda G'uzor, Qamashi, Ko'kdala, Mirshirk, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarini kambag'allik hamda ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan.

Dunyoda go'sht narxlari oshib borayotgan

hozirgi sharoitda viloyatda chorvachilik va ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlaridan unumli foydalanish bo'yicha yangi tizim joriy etilayotgani ta'kidlandi.

Bunda 2030-yilgacha 200 ming gektar, shu jumladan, 2026-yilda 15 ming gektar yerni o'zlashtirish, infratuzilma bilan ta'minlash orqali ozuqa ekinlari, kartoshka, sabzavot, dukkakli va moyli o'simliklar yetishtirish hajmlarini oshirish vazifasi qo'yildi.

Joriy yilda g'alla hosildorligini o'rtacha 84,8 sentnerga, paxta hosildorligini 47,5 sentnerga, kartoshka hosildorligini 175 sentnergacha oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 48 ta g'alla kombayni, 272 ta chigit ekish seyyakasini xarid qilish, suv tejovchi texnologiyalar va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga qishloq xo'jaligida daromadni 20 - 35 foizga oshirish imkonini mavjudligi ko'rsatildi.

Suv ta'minoti Qashqadaryo uchun eng og'ir masalalardan ekani qayd etildi.

Ekinlarning katta qismi nasos orqali sug'orilishi sharoitida 2026-yilda 320 kilometr magistral va 3,3 ming kilometr ichki kanallarni betonlash, 70,6 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, 27,4 ming gektarda lazerli tekislash ishlarini amalga oshirish hamda 16 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish vazifalari belgilandi. Bu orqali 800 million kub metr gacha suv iqtisod qilinishi kutilmoqda.

Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida Hisorak suv omboridan Qarshi shahriga suv tortish loyihasi ishlab chiqilayotgani ma'lum qilindi. Ushbu loyiha doirasida 16 ta ichimlik suvi inshooti va 416 kilometr tarmoq quriladi. Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Dehqonobod va Qamashi tumanlaridagi kanalizatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilinadi.

Turizm salohiyatini to'liq ishga solish bo'yicha yiliga 1 million sayyohni jalb qilayotgan Miraki shaharchasi tajribasi asosida yangi loyihalarni qolgan tumanlarda ham kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Qamashi tumanida "Maydanak" baland tog' turizm markazini tashkil etish, Shahrisabz tumanida bir vaqtning o'zida 13 ming sayohatchiga xizmat ko'rsatadigan "G'elon" xalqaro umummavsumiy kurortini barpo etish, Yakkabog' tumanining Tatar qishlog'ida turizmi rivojlantirish, Hazrati Sulton cho'qqisi hududida trekking yo'nalishlari va chodirli uylar oromgohini tashkil etish loyihalarini shular jumlasidir.

Umuman, joriy yilda 45 ta mehmonxona va mehmon uyi tashkil etilib, qo'shimcha 1130 o'rin yaratilishi belgilandi.

Viloyatda yo'l, uy-joy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham aniq dasturlar muhokama qilindi. "Yangi O'zbekiston" qiyofasidagi 2 ta

tuman va 46 ta mahallada, shuningdek, og'ir toifadagi 3 ta tuman va 108 ta mahallada ichki yo'llar, suv ta'minoti, sug'orish infratuzilmasi hamda elektr tarmoqlarini yaxshilash uchun jami 864 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi belgilandi.

Ijtimoiy yo'nalishda oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatkichlar belgilandi. Jumladan, yangi davlat va xususiy bog'cha, maktablar tashkil etish, 120 ming nafar xotin-qizning bandligini ta'minlash, 21,1 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, "ayollar daftari" orqali 102 ming nafariga yordam ko'rsatish choralarini nazarda tutilgan.

Germaniya bilan hamkorlikda tartibli mehnat migratsiyasi va kasbiy tayyorlik bo'yicha yangi tashabbuslar taqdim etildi. 2026-yilda 3000 nafar, 2027-yilda 5000 nafar yoshni Germaniyaga ishga yo'naltirish, ularni o'qitish uchun Qarshi shahrida Ta'lim va texnologiyalar markazini ochish rejalashtirilgan.

Yig'ilish yakunida davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar ijrosini qat'iy nazoratga olish, investitsiya va eksport ko'rsatkichlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O'z.A.

Aks sado MUHIM VA O'Z VAQTIDA QO'YILGAN STRATEGIK QADAM

Farmatsevtika sohasi iqtisodiyot uchun ham, aholi salomatligi nuqtayi nazaridan ham muhim tarmoq sanalib, yurtimizda unga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratiladi. Shu bois Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan va tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologiyalar transferini jadallashtirish hamda mahalliyashtirishni kuchaytirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida nafaqat mavjud holat tahlil qilindi, balki farmatsevtika sanoatini iqtisodiy xavfsizlik, aholi salomatligi va eksport salohiyati bilan uzviy bog'liq strategik yo'nalish sifatida rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.



Unda qayd etilgan raqamlarning o'ziyiq tarmoqda sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. So'nggi to'qqiz yilda sohaga 1,8 mlrd. dollar investitsiya kiritilib, 140 ta yangi quvvat ishga tushirilgan. Shuningdek, korxonalar soni 300 tadan oshib, ishlab chiqarish hajmining 3,5 barobar ko'paygani ham ushbu tarmoq endilikda iqtisodiyotning chekka emas, balki tayanch yo'nalishlaridan biriga aylanayotganini anglatadi. Mahalliy mahsulotlarning 55 ta davlatga kirib borgan va sohada 40 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgani jarayonning amaliy samarasidir.

Farmatsevtika yo'nalishiga o'zaro ishlab chiqarish sohasi emas, inson hayoti va salomatligi bilan bog'liq tizim sifatida yondashilgani alohida ahamiyatga ega. Bugun tibbiyotda profilaktika, kasalliklarning oldini olish, sifatli va hamyonbop dori vositalariga ehtiyoj ortib borayotgan bir vaqtda, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish masalasi yanada dolzarblashmoqda. Shu ma'noda, 2030-yilgacha ichki iste'moldagi mahalliy dorilar ulushini 70 foizga yetkazish, kelgusi besh yilda eksportni 1 mlrd. dollarga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar juda muhim va o'z vaqtida qo'yilgan strategik maqsadlardir.

Yig'ilishning eng e'tiborli jihataridan yana biri - muammo va imkoniyatlarga ochiq, tanqidiy yondashuv namoyon etilgani. Ayrim hududlarda farmatsevtika zonalarini tashkil qilingan bo'lsa-da, ulardan samarali foydalanilmayotgani, ba'zi viloyatlarda yangi loyihalarga ishga tushmagani, mavjud quvvatlarning to'liq ishlamayotgani davlat rahbarining haqli e'tiroziga

sabab bo'ldi va bu holat tizimda amalga oshirishni kerak bo'lgan ishlar salmog'i ancha katta ekanidan dalolat beradi. Sohani rivojlantirish maqsadida endilikda yangi farmatsevtika vositalari ishlab chiqarish, dorivor o'simlik yetishtirish va qayta ishlash yo'nalishidagi loyihalar uch yil muddatga yer solig'idan ozod qilinishi, foyda va mol-mulk soliqlari bo'yicha ham yengilliklar berilishi tadbirkorlar uchun katta imkoniyatdir. Yana bir jihat borki, u ham bo'lsa sohada ilm-fan yutuqlariz hech narsaga erishib bo'lmastir. Ya'ni farmatsevtika - bu oddiy sanoat emas, ilm, tajriba, klinik tadqiqot va yuqori malakali kadrlar uyg'unligida rivojlanadigan soha. Shu bois Milliy biofarmatsevtika ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish, laboratoriyalar va xalqaro klinik tadqiqotlar markazini yaratish, talabalarni dual ta'lim asosida korxonalarda o'qitish bo'yicha belgilangan vazifalar kelajak uchun mustahkam zamin yaratadi.

Keyingi paytlarda farmatsevtika sohasida son emas, sifat; import emas, mahalliy ishlab chiqarish; tarqoq tashabbuslar emas, yagona strategik yondashuv davri boshlanayotganini kuzatish mumkin. Yig'ilishda belgilangan vazifalar o'z vaqtida va samarali amalga oshirilsa, O'zbekiston nafaqat ichki ehtiyojini qanoatlantiradigan, balki yuqori standartlarga javob beradigan, eksport bo'lmagan innovatsion farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaradigan mamlakatga aylinishi muqarrar.

Sayyora ABDIKARIMOVA, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Senat qo'mitasida

MUHOKAMADA - DIPLOMATIK VAKOLATXONALAR FAOLIYATI

Kuni kecha Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi.

Unda senatorlar, vazirlik va idoralar, hokimliklar rahbarlari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari raislari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya, Belgiya Qirolligi, Italiya va Ispaniyadagi diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining xorijiy mamlakatlardan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiya va grantlarni jalb qilish, eksportni kengaytirish hamda yangi bozorlarni ochish va turistlar oqimini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar bo'yicha hisobotlari eshitildi.

Muhokama davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida xorijdagi elchixonalar rahbarlariga tashqi aloqalarni yanada rivojlantirish, milliy manfaatlarni faol ilgari surish, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish bo'yicha berilgan topshiriqlar va ustuvor vazifalar o'z vaqtida bajarilishiga alohida e'tibor qaraladi.

Shuningdek, mamlakatimizga xorijiy investitsiya, grant va texnologiyalarni jalb etish, hududlararo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transport-logistika yo'laklarini ishga solish, yetakchi xorijiy universitetlarning filiallarini ochish, qonuniy mehnat migratsiyasini diversifikatsiyalash, xorijda vaqtincha bo'lib turgan fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini tizimli himoya qilish muhimligi ta'kidlandi.

Bu borada diplomatik vakolatxonalarining vazirlik va idoralar, hokimliklar hamda mahalliy Kengashlar bilan hamkorligini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Muhokama yakuni bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Onlayn muloqot

MUSTAHKAM TARIXIY ASOSLARGA EGA ALQOALAR

Oliy Majlis Senati "O'zbekiston - Estoniya" va "Estoniya - O'zbekiston" hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlarining onlayn uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani, ushbu hamkorlik mustahkam tarixiy asoslarga ega ekan hamda o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari asosida taraqqiy etayotgani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuv chog'ida parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Xususan, parlamentlararo guruhlar faoliyati samaradorligini oshirish, parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish hamda bu borada o'zaro tajriba almashish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, qonun ijodkorligi bo'yicha hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish va parlamentlararo muloqotni yangi mazmun bilan boyitish masalalariga alohida e'tibor qaraladi.

Tomonlar delegatsiyalar almashinuvi va muntazam muloqotlar orqali hamkorlikni yanada faollashtirishdan manfaatdor ekanliklarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

PARLAMENT SO'ROVI VA NATIJALAR TAHLILI

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tomonidan qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda sohaga ilm-fan yutuqlarini joriy etish borasida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar holati joyiga chiqib o'rganildi.

O'rganish

Jarayonda mazkur sohaga oid hukumatga yuborilgan parlament so'rovi ijrosining holati, bajarilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil qilindi.

Xususan, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimiga kiruvchi 13 ta ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati

transformatsiya qilinib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi ilmiy yo'nalishlar - yangi drayverlar tashkil etilgan.

Jumladan, Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashtirishga ixtisoslashtirilgan xalqaro ilmiy markaz faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot

institutlari tomonidan 14 ta xorijiy ilmiy muassasa va tashkilot bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, 30 ta shartnoma va memorandum imzolangan. Natijada umumiy qiymati 78 mlrd. so'mlik xalqaro grant loyihalari amalga oshirildi.

Tuproqni muhofaza qilish, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish va yerlarni lazerli tekislash bo'yicha ilmiy-metodik asoslar ishlab chiqilib, amaliyotga yo'naltirilmog'ida. Tuproq tarkibidagi foydali mikroorganizmlar faolligini oshirish, suv va ozuqa rejimini yaxshilash maqsadida "Biochar" va "Jivamur" kabi tabiiy bio'g'itlardan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida esa

zamonaviy biotexnologik va molekulyar-genetik tahlillarni amalga oshirishga ixtisoslashtirilgan "G'o'za biotexnologiyasi" laboratoriyasi tashkil etilgan.

Bundan tashqari, markazda Vengriya davlati bilan hamkorlikda zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlangan "In-vitro" laboratoriyasi faoliyat olib bormog'ida.

O'rganish davomida mutaxassislar va olimlar bilan sohada mavjud muammolarni bartaraf qilish hamda islohotlarni izchil davom ettirish, amaliy natijadorlikni yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilib, kelgusida rejalashtirilayotgan ishlar yuzasidan fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

TALABALAR - SENATDA

Kecha Toshkent davlat universiteti talabalari Oliy Majlis Senatida bo'lib, parlament yuqori palatasining qonunchilik faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zolari hamda Yoshlar parlamenti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tanishuv

Muloqot davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari,

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlar, ayni chog'da, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, davlat boshqaruvi va parlament faoliyatiga oid masalalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi bilan tanishuv doirasida talabalar Senat faoliyati, uning qonunchilik jarayonidagi o'rni hamda parlament tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'ldi.

"Xalq so'zi".

HUQUQIY NORMALARDA FUQAROLAR

1 Inson salomatligi va aholi hayot sifatini ta'minlashda farmatsevtika sohasining o'rni beqiyos, - deydi fraksiya a'zosi Sevara Ubaydullayeva. - So'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, tarmoqqa katta hajmda investitsiyalar jalb qilinib, ko'plab yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Natijada mahalliy dori vositalari soni ortib, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan farmatsevtika mahsulotlari xalqaro bozorlarga ham kirib bormog'ida.

Fraksiya a'zolari davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qilishini va bu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini alohida ta'kidlashdi.

Yig'ilishda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ma'lum qilinganidek, mazkur qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan barcha takliflar chuqur tahlil etilib, ular asosida hujjat matni maromiga yetkazilgan. Xususan, "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunning arxiv hujjatining elektron nusxasi, idoraviy arxiv, elektron arxiv tushunchalariga

berilgan ta'riflar aniqlashtirilgan. Shuningdek, qonun loyihasi elektron arxivni tashkil etish tartibi va o'ziga xos talablarini belgilovchi alohida modda bilan to'ldirilgan. Bundan tashqari, loyiha bilan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirishga oid kiritilgan normalarga aniqlashtiruvchi va tahririy tuzatishlar kiritilgan. Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni boshlashda ortiqcha



tartib-taomillardan o'tish jarayonlarini bartaraf etish, arxiv tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solishga xizmat qilishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda iqtidorli yoshlar va mutaxassislarining xorijdagi nufuzli ta'lim, ilmiy va boshqa tashkilotlarda ta'lim olishini tashkil etish hamda davlat xizmatchilarini xorijiy

mamlakatlarda o'qitish va ularning maqsadli stajirovka o'tashi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmog'ida. Jumladan, shu

maqsadda 2018-yilda O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan "El-yurt umidi" jamg'armasi ochilgan edi.

Mazkur qonun loyihasida "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlarining majburiyatlarini aniq belgilash, jamg'arlar tomonidan sarflangan mablag'larni undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritishda davlat bo'jini to'lashdan ozod qilinishi nazarda tutuvchi norma kiritish taklif etilmog'ida.

Shuningdek, loyihada idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibini soddalashtirish hamda muddatlarni qisqartirish nazarda tutilmog'ida.

Fraksiya a'zosi Dilnoza Azizova qonun loyihasiga munosabat bildirib, loyihada ayrim holatlar ko'zda tutilmagani e'tiroz bildirdi. Stipendiatlar sog'lig'i va boshqa sabablar bilan shartnoma majburiyatlarini vaqtida bajarmay qolishi ham mumkinligiga urg'u berdi.

Jamg'ar vakili bu masalani izohlarkan, qonun loyihasida, asosan, bitirganidan so'ng shartnoma talablarini bajarmagan stipendiatlar nazarda tutilganini ma'lum qildi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Ayollar va bolalar

huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi Prezident farmonining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar ushbu farmon ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilganini, hujjat bilan inoyat va ma'muriy qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirishlar orqali jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo'rvonlik uchun javobgarlik choralarini aniqlashtirilayotganini qayd etdi.

Partiya o'z dasturiy maqsadlarida ijtimoiy adolat, teng huquqlik va qonun ustuvorligini ta'minlashni ustuvor vazifa, deb bilishi, mazkur hujjat aynan shu tamoyillarni amalga qaror toptirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisi o'rinbosari institutini joriy etish, unga bir vaqtning o'zida Kengash kotibiyati mudiri vazifasini bajarish hamda Kengash kotibiyati xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan

DAVLAT DASTURI IJROSI QONIQLARIMI?

Avval xabar berilganidek, Qonunchilik palatasida "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2025-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti atroflicha muhokama qilingan edi.

Nuqtai nazar

Aytish joizki, o'tgan davrda davlat dasturining har bir yo'nalishi bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan, ularning natijalari xalqimizning kundalik hayotida aks etgan. Jumladan, dasturda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida jami 226 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan davlat dasturining ijrosini tizimli tashkil etishga qaratilgan alohida e'tibor, undagi tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha o'z vaqtida qabul qilingan farmonlar va qarorlar hamda o'tkazilgan qator muhokamalar ushbu muhim hujjatning samarali bajarilishida asosiy omil bo'lgan.

Davlat dasturining ijrosini nazorat qilish, belgilangan chora-tadbirlarni hukumat bilan hamkorlikda amalga oshirishda Qonunchilik palatasi ham faol qatnashdi. Quyi palata

va undagi siyosiy partiyalar fraksiyalarida davlat dasturi doirasida bajarilgan ishlarining holati yuzasidan mansabdor shaxslarning axboroti eshitib borildi. Qo'mitalar dasturda belgilangan vazifalarning joylarda ijro etilishi holatini muntazam ravishda nazorat-tahlil tartibida o'rgandi.

O'tgan davrda dasturda belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Qonunchilik palatasining majlislarida hukumat a'zolarining axborotlari eshitildi. "Hukumat soat"larida dastur ijrosi bo'yicha aniq savollarga javoblar olingan. Mansabdor shaxslarga esa parlament va deputat so'rovlari yuborildi.

Shu bilan birga, hozirda dastur doirasida bajarilishi belgilangan ba'zi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ayrim kechikayotgan masalalar esa deputatlarining e'tirozlariga sabab bo'lib, hukumatga davlat dasturidagi ijro muddati

uzaytirilgan va bajarilishi davom etayotgan vazifalarning ijrosini ta'minlash choralari ko'rish bo'yicha zarur tavsiyalar berilgandi. Xususan, davlat dasturi doirasida ishlab chiqilgan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi, "Ulush kiritish asosida uy-joy qurish to'g'risida"gi, "Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi, "Iqlim o'zgarishi to'g'risida"gi, "Diplomatik xizmat to'g'risida"gi kabi qonun loyihalarining Qonunchilik palatasiga qisqa muddatlarda kiritilishini ta'minlash lozimligi so'ralgan.

Qolaversa, dasturdagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetida ko'zda tutilgan mablag'larining o'zlashtirilishini va maqsadli sarflanishini ta'minlash zarurligi aytilgan. Davlat dasturidagi ijro muddati uzaytirilgan va bajarilishi davom etayotgan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralarda deputatlar o'z munosabatini bildirdi.

yanada mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Dilmurod ARTIQOV, Qonunchilik palatasi deputati:



- Davlat dasturida yakuniga yetmagan agroturizmni rivojlantirish, "Bir million yashil oila" umummilliy harakati doirasida "Ekofaol fuqaro" va "Yashil tadbirkor" maqomini joriy etish masalalarini tezlashtirish deputatlarining e'tibor markazida bo'ldi. Zero, bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida izchil islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy asoslarni

Har ikki masala ham mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, "Yashil makon" umummilliy loyihasining joriy bajarilishini yanada oshirish, eng muhimi, bu tashabbuslarda xalqimiz, ayniqsa, tadbirkorlarning faol ishtirok etishi uchun huquqiy mexanizmlarni yaratish juda ahamiyatlidir.

Mazkur hujjatlarini tezkorlik bilan ko'rib chiqish va qabul qilish mamlakatning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat dasturida belgilangan har bir maqsad va vazifaning o'z vaqtida, to'liq va sifatlilik bilan amalga oshirilishi esa mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadi.



uy foydalanishga topshirilmaguna qadar bankda saqlanadi. Faqat belgilangan shartlar bajarilgandan so'ng mablag' developerga o'tkaziladi.

Shokirjon AHMEDOV, Qonunchilik palatasi deputati:

- Davlat dasturining ijrosini muhokama qilish jarayonida "Ko'p kvartirali uylar va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurishda ishtirok etish to'g'risida"gi qonun loyihasining hozirga qadar quyi palataga kiritilmaganiga ham alohida e'tibor qaratildi. Deputatlar loyihani qisqa muddatlarda kiritishni ta'minlash zarurligini bildirishdi.

Loyihada qurilishga ulush kiritish tartibi, ishtirokchilar va quruvchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar hamda ularning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash nazarda tutilishi lozim. Shuningdek, "ulushli qurilish" tushunchasi aniq belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Qonun loyihasida eskrou (escrow) hisoblarini joriy etishni ham ko'zda tutish zarur. Unga muvofiq, ulushdor mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri developerga berilmaydi, balki eskrou hisobvotqari orqali jamlanadi. Pullar qurilish tugallanib,

Qonun loyihasida javobgarlik choralari kuchaytirish ham zarur. Bunda qonun talablariga kichik darajada qurilishda ishtirok etish, shartnomalarni davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazmaslik uchun choralarda belgilash muhim ahamiyatga ega.

Har bir yilning bosh hujjati bo'lgan davlat dasturining o'z vaqtida sifatlilik bilan ijro etilishi uchun mas'ullik va hamkorlik o'ta muhim. Qonunchilik palatasi hukumat bilan sheriklikda davlat dasturlarining ijrosini ta'minlashda katta mas'uliyatni his qiladi. Zero, dasturidagi maqsad va vazifalar xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotining muhim kafolatidir.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston va Vengriya:

TA'LIM VA ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIKNING YANGI BOSQIHI

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida o'tgan O'zbekiston - Vengriya oliygohlari rektorlarining uchinchi forumi ikki mamlakat oliy ta'lim tizimida muhim voqea bo'ldi.

"Raqamli davrda oliy ta'lim: sun'iy intellekt, innovatsion modellar va global raqobatbardosh universitetlar" mavzuida tashkil etilgan mazkur nufuzli anjuman ikki mamlakat ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlikni mutlaqo yangi bosqichga ko'tardi.

Biz va jahon

Forumda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irov Sharipov, Vengriya rektorlar konferensiyasi prezidenti, Semmelweis universiteti rektori Bela Merkeli, Vengriyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Yo'jef Roja, shuningdek, ikki mamlakatning 80 dan ortiq yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari va soha vakillari qatnashdi.

Forumning ochilish marosimida so'z olganlar ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalariga to'xtalib, bugungi yutuqlar zahirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban o'rtasidagi do'stona munosabatlarni muhim o'rin tutishini alohida ta'kidladi.

Aloqalarda sifat o'zgarishlari

Vengriya bilan oliy ta'lim va ilm-fan sohasida hamkorlik 2017-yil 21-dekabr kuni Toshkent shahrida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Vengriya Hukumati o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim" asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu bitim ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning faol rivojlanishiga turki bermoqda.

Keyingi yillarda hamkorlik yo'nalishlari, asosan, akademik dasturlarni amalga oshirish, talabalar va o'qituvchilarning almashinuvini o'z ichiga olgan bo'lsa, bugungi kunda aloqalar ancha kengayib, aniq loyihalar va startaplar darajasiga ko'tarildi. Bu esa, shubhasiz, hamkorligimizning sifati o'zgaragan dalolat.

Forumda e'tirof etilganidek, Vengriya hukumati O'zbekiston fuqarolari uchun "Stipendium Hungaricum" stipendiya dasturi doirasida ajratayotgan ta'lim grantlari kvotasi yildan-yilga oshib bormoqda. 2019/2020 o'quv yilida atigi 30 ta bo'lgan stipendiya o'rinlari 2026/2027 o'quv yilidan boshlab 200 taga yetadi. Bu o'zbek yoshlari uchun Vengriyaning nufuzli universitetlarida bepul tahsil olish imkoniyatini kengaytiradi.

2018-yildan buyon "Stipendium Hungaricum" dasturi orqali 400 dan ortiq o'zbekistonlik talabalar Vengriyaning nufuzli universitetlarida tahsil oldi. Endilikda esa bizzning universitetida aynan turizm, mehmondo'stlik va madaniy meros yo'nalishlarida xalqaro sheriklik hamda akademik almashinuv dasturlari doirasida hamkorlik taklifini ilgari surmoqdami.

Salohiyatga mos natijalar

Forumda taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonning 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari Vengriyaning 30 dan ziyod universiteti hamda ilmiy-ta'lim tashkilotlari bilan turli yillarda imzolangan yuzga yaqin hamkorlik to'g'risidagi bitim va anglashuv



memorandumlari asosida o'zaro aloqalarni amalga oshirmoqda. Bu raqamlar hamkorlik ko'lami qanchalik keng ekanini ko'rsatadi.

Ayniqsa, amaliy loyihalar yo'nalishida sezilarli yutuqlarga erishilganini mamnuvniyat bilan qayd etish joiz. Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, alternativ energiya manbalari, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari va ekologiya sohalari qamrab oluvchi 17 ta startap-loyiha ma'qullanib, moliyalashtirilgan. Bu ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari hamkorligi nafaqat akademik almashinuv, balki aniq iqtisodiy samara beradigan loyihalarga aylanayotganini ko'rsatadi.

Forumda taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonning 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari Vengriyaning 30 dan ziyod universiteti hamda ilmiy-ta'lim tashkilotlari bilan turli yillarda imzolangan yuzga yaqin hamkorlik to'g'risidagi bitim va anglashuv memorandumlari asosida o'zaro aloqalarni amalga oshirmoqda. Bu raqamlar hamkorlik ko'lami qanchalik keng ekanini ko'rsatadi.

Vengriya rektorlar konferensiyasi prezidenti, Semmelweis universiteti rektori Bela Merkeli o'z nutqida Vengriya oliy ta'lim tizimining so'nggi yillarda erishgan yutuqlari haqida so'z yuritdi. Uning ta'kidlashicha, eng nufuzli xalqaro fan yo'nalishlari reytinglarida Vengriyaning 2 ta universiteti 4 ta yo'nalish bo'yicha "TOP - 100"talikka, 8 ta universiteti 20 ta yo'nalish bo'yicha "TOP - 200"talikka, 11 ta universiteti esa 48 ta yo'nalish bo'yicha "TOP - 300"talikka kiritilgan. Bu Vengriya oliy ta'limi yuksak salohiyatga ega ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Forumning yalpi majlisida qator rektorlarning ma'ruzalari tinglandi. Oliyog'lar rahbarlari ta'limdagi kreativ yondashuvlar, strategik sheriklik va baynalmillilik masalalariga oid qimmatli fikrlarni o'rta qatnashdi.

Forum doirasida ikkita parallel sessiya tashkil etilib, ularda oliy ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Birinchi sessiyada sun'iy intellekt davrida kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va qo'shma laboratoriyalar tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

Ikkinchi sessiyada startaplar, texnologiyalar transferi va universitet - sanoat hamkorligi masalalari bo'yicha qiziqarli ma'ruza hamda taqdimotlar bilan tanishildi.

Ayniqsa, Istvan Szechenyi universiteti professori L. Palkovichning "Zamonaviy qishloq xo'jaligini boshqarish, "Smart Farm" mavzuidagi ma'ruzasi va Vengriya Innovatsiya agentligining xalqaro eksperti J. Gallaning "Universitet loyihalarini 6 oy ichida bozorda tasdiqlash" mavzuidagi taqdimoti katta qiziqish uyg'otdi. Ular amaliy hamkorlik uchun muhim g'oyalarni berdi.



Yuqori marralar sari jiplashuv

O'zbekiston va Vengriya oliygohlari rektorlarining uchinchi forumi aynan Samarqandda o'tkazilgan bejiz emas. Bu shahar asrlar davomida Sharq va G'arbni, turli madaniyatlarni bog'lovchi bebaho ko'priq vazifasini o'tab kelgan. Bugungi kunda aynan mana shu ochlik va o'zaro hurmat ruhi oliy universitetlarimizni yangi marralar sari birlashtirmoqda.

Forumning muhim natijasi - O'zbekiston va Vengriya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 20 dan ortiq yangi hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bu kelishuvlar qishloq xo'jaligi, muhandislik, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, energetika, tibbiyot va pedagogika kabi ustuvor yo'nalishlarda qo'shma ta'lim va ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bizning "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetimiz Vengriyaning yetakchi davlat oliygohlaridan biri bo'lgan va 2026-yilda Sharqiy Yevropa reytingida 99-o'rinini egallagan Sopron universiteti bilan xalqaro hamkorlik doirasida memorandum imzoladi. Uning doirasida, asosan, akademik dasturlarni amalga oshirish, talabalar va o'qituvchilarning almashinuvini ko'zda tutilgan.

Forum doirasida Vengriya delegatsiyasi Samarqand, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahrida qator tadbirlarda qatnashdi. Jumladan, Obuda universiteti bilan hamkorlikda Jizzaxda tashkil etilgan "INNO" texnopark faoliyati bilan tanishdi. O'zbekistonning ko'plab oliy ta'lim muassasalariga tashrif buyurdi. Shuningdek, poytaxtimizning tarixiy va diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtirildi.

O'zbekiston - Vengriya oliygohlari rektorlarining uchinchi forumi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik akademik hamkorlikni yanada mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek, global raqobatbardosh universitetlar ekotizimini shakllantirish yo'lida muhim qadam bo'lgani bilan ahamiyatli.

Forumda erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar nafaqat oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni

kengaytirish, balki ikki mamlakat iqtisodiyotining real sektori uchun malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilish, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi muhim vazifalarni hal etishga hissa qo'shadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irov Sharipov forumda ta'kidlaganidek, kelgusida qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, muhandislik, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, mexatronika va robototexnika, energetika, tibbiyot, pedagogika kabi dolzarb yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot hamda ta'lim loyihalarini amalga oshirish ustuvor maqsad qilib belgilandi.

Vengriyaning buyuk olimi, Nobel mukofoti sohibi Albert Sent-Dyordi aytganidek: "Tadqiqot - bu hamma ko'rgan narsani ko'rish, ammo hech kim o'ylamaganidek o'ylashdir". Ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik xalqlarni yaqinlashtiradi, yangi g'oyalarni va kashfiyotlarni uchun imkoniyat yaratadi. Shu ma'noda, O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi ta'lim hamda ilmiy hamkorlik yo'nalishidagi har bir qadam kelajakka qaratilgan qimmatli sarmoyadir. Mazkur forum ana shunday sarmoyaning yana bir tasdiqi bo'ldi.

Muhsinjon XOLMUHAMMEDOV, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rektori vazifasini bajaruvchi.

REKLAMA

"Qishloq qurilish invest" MCHJ injiniring kompaniyasi bosh direktor o'rinbosari lavozimiga tanlov ochilganligini ma'lum qiladi.

Nomzodlarga qo'yilgan talablar:
- qurilish yoki iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumot olganligi;
- qurilish injiniring kompaniyasida 5 yildan ziyod ish tajribasi borligi;
- xalqaro moliya institutlari bilan ishlagan bo'lishi;
- menejment va uy-joy marketingda batafsil ma'lumotlar va tajribaga egaligi;
- strategik fikrlash, yetakchilik fazilatlarini va tajribasini mavjudligi.
Nomzodlar tomonidan ma'lumotlar (rezюме) mazkur e'lon chiqqan sanadan boshlab 15 kun muddat davomida kompaniyaning ofisiga taqdim etilishi so'raladi. Manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, "M-39" avtomagistrali, 45-uy.

Ma'lumot uchun tel.: 91-137-85-20.

MANFAATLARI USTUVOR

ozod qilish vakolatlarini berish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida mahalliy Kengashlar sessiyalari kun tartibi loyihasini shakllantirish hamda ularni chaqirish, doimiy komissiyalar ishini muvofiqlashtirish va boshqa tashkiliy vakolatlariga ega Kengash Rayosati instituti joriy qilinib, uning ish faoliyati tartibi belgilanyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan Kengashlarda mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish bo'yicha "Kengash soati" instituti ham joriy etilmoqda, - deydi fraksiya a'zosi Gulruh Agzamova. - Ushbu hujjatning qabul qilinishi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish hamda joylarda Kengashlar nazorat faoliyatining takomillashuviga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

shuningdek, shaxsning o'zi sodir qilgan huquqbuzarligi aks etgan materiallarni tarqatish holatlari uchun javobgarlik belgilashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, loyihada band solingan yoki ijro harakatlari doirasida xatlangan mulkni qarzdor tomonidan qonunga xilof ravishda tasarruf etish holatlari uchun ham javobgarlik choralari belgilash taklif qilinmoqda.

Muhokama jarayonida deputatlar qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida fraksiya tomonidan bildirilgan taklif va e'tirozlar inobatga olinganiga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, ayrim normalarni yanada aniqlashtirish va takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Jumladan, fraksiya a'zosi Sharofiddin Nazarov band solingan yoki ijro harakatlari davomida xatlangan mulkni yashirish, yo'qotish yoki unga shikast yetkazish bilan bog'liq me'yorlarni yanada aniq bayon etish zarurligini bildirdi. Uning fikricha, mazkur holatlar qonun normalarida aniq ifodalanmasha, amaliyotda turli talqinlarga sabab bo'lishi mumkin.

Qonun loyihasiga mas'ul qo'mita vakillari esa taklif qilinayotgan normalar amalda yuzaga kelayotgan muayyan huquqiy muammolarni hal etishga qaratilganini ta'kidladi. Ayniqsa, bank kreditlari bo'yicha qarovga qo'yilgan mulkni yashirish yoki shikastlantirish



holatlari ayrim hollarda ijro harakatlarini amalga oshirishga to'sinlik qilayotgani qayd etildi.

Shu bilan birga, deputatlar ayrim takliflar dastlab noto'g'ri huquqiy shaklda ifoda etilganini ta'kidlab, loyihadagi normalarni amaliyotdagi muammolarni bartaraf qiladigan tarzda qayta ko'rib chiqish zarurligini bildirdi. Ularning fikricha, qonunchilikdagi bo'shliqlar bartaraf etilsa, bank kreditlari bilan bog'liq munosabatlarda yuzaga kelayotgan ayrim huquqiy muammolarga samarali yechim topish mumkin.

Muhokama davomida qonun loyihasidagi ayrim normalarni yanada takomillashtirish, huquqiy

tushunchalarni aniqlashtirish hamda ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda, shuningdek, kun tartibidagi boshqa muhim masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Muhokama chog'ida mamlakatimizda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyati samaradorligini oshirish,

ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini mustahkamlash hamda deputatlik nazorati mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Qonun loyihasi bilan mahalliy Kengashlar faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida Kengash Rayosati institutini joriy etish nazarda tutilmoqda. Mazkur organ mahalliy Kengashlar sessiyalari kun tartibi loyihasini shakllantirish, doimiy komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqa tashkiliy masalalarni hal qilish kabi Kengash faoliyati samaradorligini yanada ko'tarishga qaratilgan vazifalarni amalga oshiradi.

Shuningdek, qonun loyihasi bilan Kengashlarda tegishli hududdagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish institutining kiritilishi ijro hokimiyati organlari ustidan mahalliy Kengashlarning nazorat funksiyalarini yanada oshiradi.

Fraksiya yig'ilishida qonun loyihasidagi normalar atroflicha ko'rib chiqildi, - deydi fraksiya a'zosi Boriy Alixonov. - Belgilanayotgan normalar mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga, Kengash organlari o'rtasidagi vakolatlarni aniq belgilashga, deputatlik nazorati mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida fraksiya a'zolari qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi.

"Xalq so'zi".

YANGI O'ZBEKISTON AYOLLARI — KUCH, MEHR VA ILHOM TIMSOLI

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi:



Bolaligimda qo'rqularimni qalb tafti bilan bosardi, injiqliklaringa bardosh berardi — bularning barchasi xotiramda muhrlanib qolgan.

O'sha paytlardanoq onam o'z orzu-umidlarini biz, farzandlar baxti bilan bog'lab tasavvur etgan. O'zini emas, avvalo, bizlarni o'ylagan, o'z oromini emas, farzandlari tinchligini ustuvor bilgan.

Men bugun hayotda nimagadir erishgan, odamlar ishonchini qozonayotgan bo'lsam — hammasini onamning mehnati, tarbiyasi va duolari natijasi deb bilaman. Bu inson bergan tarbiya tufayli men halollikni, adolatni, mehr-oqibatni hayotimning asosiy mezonini, soddaligi va mehriyatini men uchun eng katta namunadim.

Inson hayotida turli sinovlarga duch keladi. Qiyinchiliklar, tashvishlar, mas'uliyatlar har birimizni toblaydi. Ammo men har qanday vaziyatda o'zimni yolg'iz his qilmayman. Chunki ortimda onamning duolari, ishonchi va mehri borligini bilaman. Ona duosi — eng kuchli panoh, eng mustahkam qalqon.

Onam — butun oilamiz faxri. Bu insonning hayot yo'li — fidoyilik, sabr va mehr bilan to'lgan ibratli maktab.

— Ona... Bu so'zni tilga olgan insonning qalbidan darhol iliqlik uyg'onadi. Chunki ona — mehr-shafqat timsoli, sabr va matonat namunasi, fidoyilik va bag'rikenglik maktabi. Ona — hayotimizdagi ilk muallim, ilk ustoz, ilk ayol boshqaruvchi. Inson bu dunyoga kelgan ilk ondan boshlab, ona mehri bilan ulg'ayadi, duosi bilan kuch topadi, ishonchi bilan qanot yozadi.

Prezidentimiz Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida inson baxti o'ladan boshlanishini, oila esa ayol bilan mustahkam ekanini ta'kidlagani bejiz emas. Ona farzandiga nafaqat hayot baxsh etadi, balki uning taqdirini shakllantirishga katta xizmat qiladi. O'zimdən qiyos: onam engilidina tetapoya bo'lganimdan boshlab shu kungacha ham hayotning katta-kichik bo'ronlaridan meni asrab-avaylashga intilib keladi.

Zuhriddin MAVLONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Prezidentimizning o'z nutqida "Yangi O'zbekistonni ayollari hayotdan rozi bo'lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirish — mening eng katta qiyosim hamon ko'z oldimda.

Onajonim maktabda dars bermagandir, katta lavozimlarda ishlamagandir, ammo oddiy qishloq ayoli va uy bekasi sifatida mening hayotimdagi birinchi va eng buyuk ustozim hisoblanadi. Rostgo'ylikni, mehnatsevarlikni, kattani hurmat qilishni, kichikni asrashni, halollik va sabrni — bularning barchasini biz, avvalo, shu insondan o'rgandik.

Sog'lig'im sabab aka-ukalarim va tengdoshlarim kabi bog'chaga bora olmaganimda, meni o'ksinmasin deb 5 yoshimdan qo'limga qalam tutqazib, uyda harf tanitgan va shu yoshimda kitob o'qitgan ham shu zot! Mening ilk alfibom, ilk kitobim va ilk sabog'im onamning mehr to'la qo'llaridan boshlangan. Maktabda a'lo baholarga o'qiganim, fan olimpiadalarida qatnashib, tarix va huquq fanlariga mehrim ortgan — bularning barchasida ota-onamning ishonchi va daldasi bor edi.

Bolalik xotiralarimni eslasam, ko'z oldimda juda oddiy, ammo juda aziz manzara jonlanadi: qishloq ayvonida o'tirib dars qilayotganim, hovli devoriga ilingan radiodan taralayotgan kuy, ukalarimning sho'xliklari, volidamning esa tandir boshida non yopishlari...

O'shanda bu oddiy kundek tuyulardi. Ammo yillar o'tib tushunarkansan: aynan shu manzaralar inson umrining eng qimmatbaho xazinasi ekan.

Munis onajonlarimizning borligi har birimizning eng katta baxtimizdir.



niyatim", degan so'zlari qalbimni to'liqlantirib yubordi. Zero, mamlakatda onalar baxtli ekan, demak, butun xalq baxtli.

Ba'zan bosib o'tilgan hayot yo'limga nazar tashlab, bir haqiqatni anglayman: bugun men erishgan barcha yutuqlar va xalqning ishonchi — aslida meniki emas, ota-onamning muvaffaqiyatidir. Chunki hayotdagi har bir natijamiz — bor-yo'g'ini biz, farzandlariga sarflab, to'g'ri tarbiya bergan, yaxshi ta'lim olishimiz va sevgan kasbimizni egallashimiz uchun sharoit yaratgan ushbu insonlarning fidokorona mehnatlari samarasidir.

Onam bizga hashamatli samolyotlar olib bermagandir, lekin eng muhimi — parvoz qilish san'atini o'rgatdi va biz uchun mustahkam uchish yo'lagini tayyorlab berdi. Volidamiz bergan eng katta boylik — bu tarbiya, ishonch va muqaddas duolaridir.

Bolaligim Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi olis Kilkon qishlog'ida o'tgan. Qishda qor kechib, yozda

Klara TOSHPOLATOVA,
Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining texnik bo'limi standartlash bo'yicha yetakchi muhandis-texnolog, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi:

— Ayol nozik xilqat bo'lishiga qaramay, katta va mas'uliyatli ishlarni ham yelkasiga qo'rqmay oladi. Zimmasiga yuklangan vazifani sidqidildan ado etishda uning sabri, matonati va irodasi ba'zan tog'larni ham talqon qilgulik.

Bu haqiqatni o'z hayotim va mehnat faoliyatim orqali yanada teran his etib kelyapman. Agar inson kasbini sevsa, mehnatidan zavq olsa, ishning og'irligi sezilmaydi. Men uchun ham muhandis-texnolog sifatidagi faoliyatim hayotim mazmuniga aylangan. Bu jamoada qariyb qirq yildan buyon samarali faoliyat yuritib kelyapman.

Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida orden bilan taqdirlanganim mehnatimga berilgan yuksak baho, ayni paytda men



uchun katta sharaf va mas'uliyatdir. Ayniqsa, ushbu mukofotni Prezidentimiz qo'llaridan qabul qilib olganim hayotimda unutilmas, hayajonli va baxtli onlardan biri bo'ldi. O'sha lahzalarda qalbimni qanday tuyg'ular chulg'ab olganini so'z bilan to'liq ifoda etish qiyin. Quvonchdan ko'nglim to'liqlanib ketdi. Bu e'tibor menga yanada kuch-g'ayrat bag'ishladi.

Ona va ayol sifatida bu ehtiromni umrim davomida unutilmas, hayotimning mazmunli va faxrli onlari sifatida qadrlab, qalbm to'rida asrayman.

Oliya IBRAGIMOVA,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 1-Gidrometallurgiya zavodi kran mashinisti, "Do'stlik" ordeni sohibi (Navoiy viloyati):

— Onamning aytishicha, men tug'ilganimda otam cheksiz quvonib, "Bu bolam boshqalarga o'xshamaydi, hali el-yurt manfaati yo'lida katta ishlar qiladi", deb niyat bildirgan ekan. Men bu gaplarni keyinroq eshitganman. Ammo vaqt o'tib, hayotimga nazar tashlasam, go'yo otamning o'sha ezu niyatlari yo'limga yorug'lik berib turganday tuyuladi.

Bolaligimda qiziqish meni kran mashinisti kasbiga yetakladi. Ko'pchilik bu kasbni ayol kishi uchun og'ir, mas'uliyatli deb o'ylaydi. Rostdan ham, boshida qiyinchiliklar, hatto biroq qo'rquv ham bo'lgan. Baland kran tepasida turib yuk ko'tarish oson ish emas. Ammo qiziqishim hamda mehnatga ishonchim menga kuch berdi.

Shu kasbimda yigirma yildan beri mehnat qilib kelyapman. Jamoamizdagi yagona ayolman. Lekin ish paytida bu hech sezilmagan.



Erkaklar bilan yelkama-yelka turib, bir maqsad yo'lida faoliyat yuritamiz. Kamtarona mehnatim "Do'stlik" ordeni bilan siylanganim men uchun ulkan faxr. Bu meni yanada mas'uliyat va katta ishonch bilan ishlashga undaydi. Faoliyatimning yuksak e'tirofini otamning ezu niyatlari ro'yobi, deb bilaman.

Ordenni Prezidentimiz qo'llaridan qabul qilib olishim hayotimdagi eng baxtli, hayajonli onlar qamrab oldi. Bu men uchun keyin ham yanada shijoat bilan ishlashimga, jamoam bilan yangi marralarni zabt etishga katta ilhom beradi.

Laylo SHARIPOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori (DSc), "Shuhrat" medali sohibi:

— Shogirdlarimizdan biri kechki payt qo'ng'iroq qilib qoldi: "Davlat rahbarining e'tirofi muborak bo'lsin!" Bir lahzada umrim sahifalari; maktabda, oliy ta'limda saboq bergan; ilmiy va badiiy ijod sirlari bilan o'rtoqlashgan ulug' ustozlarim, ota-onam, qaynona-qaynotam ko'z oldimdan o'tdi. "Mehnat qil, izlan, intil, qadr topasan", deganlariga rioya etib yashadim. 1990-yildan hozirgacha, 35 yildirki, talabalarga bilim ulashaman. Hayotim navqiron



avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan o'tayotganiga shukr. Anglaganim shuki, bitta bo'r va bitta doska ko'magida ham saboq bera olish mumkin. Ammo zamondan, dunyodan orqada qolib bo'lmaydi. Yoshlar bilan hamnafas, hammaslak bo'lmasangiz, o'qitasizu uqdira olmaydiz. Shu sababdan fanlarni o'qitishda

nazariya va amaliyot birligi muhim, fanlar integratsiyasi, innovatsion texnologiyalar ishtiroki shart.

Uchinchi ReNESSANS dunyoni zalolatdan qutqarishidan, bu Uyg'onishning o'zagi yana bizning Vatanimizda ekanidan umidvorman. Yosh avlodagi shiddat va g'ayratni katta avlod ilmi hamda tajribalari bilan boyita olsak, shuning o'zi muvaffaqiyat kaliti.

Mukofotlanganim mas'uliyatimni yanada oshiradi. Men bor salohiyatimni, ilmimni, ustozlik tajribamni ta'lim-tarbiya rivojiga sarflayveraman. Bu yo'lida ilmiy va badiiy ijod bilan shug'ullanishim ko'makka keladi, deb ishonaman.

Gulsara SHERMATOVA,
Toshkent shahar Markaziy maydonlarni obodonlashtirish boshqarmasining ko'kalamzorlashtirish-gul ekuvchisi, "Shuhrat" medali sohibi:

— Ba'zan gul ekib turgan paytimda bolaligim yodimga tushadi. Onamning qora mehnatdan qadoq bo'lgan qo'llari doim ko'z oldimda. U paytlarda ayollarning mehnatiga burchalik e'tibor berilmasdi. Onam umr bo'yi ishladi, lekin ehtirom va e'zoz degan tuyg'uni u qadar his qilmagan, desam, yolg'on emas. Shuning uchun ham bugungi kunlarda ayollarga ko'rsatilayotgan qadri ko'rganimda qalbm juda to'liqlanadi.

Men o'z ishimda 15 yildan beri faoliyat yuritib kelyapman. Toshkent ko'chalari, maydonlari gulga to'lib turganini ko'rsam, qalbmda bir iliqlik paydo bo'ladi. Chunki u gullarning qatida mening ham mehnatim bor.

"Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim haqidagi xabarni eshitganimda poytaxtimizdagi "Adilbar xiyoboni"da gul ekib yurgan edik. Ishxonamiz



devonxona bo'limidagilar xabarni aytishganda, bir lahza gap topolmay qoldim. Qalbmida shunday hayajon paydo bo'ldiki, ko'zlarimga yosh keldi. Qo'limga gul ko'chatlariga qarab turib, mehnatlarim qadr topganini his etdim. Bu qadr faqat menga emas, yillar davomida mehnat qilib kelgan onamga va onam kabi zahmatkash ayollarga ham berilgan e'zozdek tuyuldi.

Gullar orasida ishlash yurib bir haqiqatni tushundim. Inson mehr bilan mehnat qilsa, yer ham unga baraka beradi. Shuning uchun har kuni ishga katta ishtiyoq bilan kelaman. Chunki men ekib ketgan gullar ertangi kunning go'zalligiga aylanadi.

Muslimaxon ABDUQAHOROVA,
Andijon davlat pedagogika institutining 1-bosqich magistranti, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi:

— Jonajon Vatanimiz bugun tom ma'noda imkoniyatlar, saodatlar, yoshlar o'lkasiga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrinidosh nafaqat yuksak e'tirof, balki katta mas'uliyatdir. Bu mukofot menga yanada ko'proq izlanish, ijodimni boyitish va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilish ilhomini beradi.

Ushbu mukofotni Yurtboshimiz qo'lidan qabul qilib olar ekanman, quvonchim ichimga sig'madi, bu kelajak maqsadlarim uchun berilgan yuksak ishonch ekanini his etdim. Shunday maqsadlarimdan biri — mahallamizda tasviriy san'atga qiziqqan yoshlarni bir joyga jamlab, bepul tasviriy san'at to'garagi ochish. Yosh avlodning salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashishni dilimga tukkanman.



Oliy o'quv yurtida tahsil olish bilan birga Oltinko'l tumanidagi 3-umumta'lim maktabida tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, yosh avlodga san'at sirlarini o'rgatishga harakat qilayapman. Ijodim orqali milliy qadriyatlarim, boy tarixim va Yangi O'zbekiston taraqqiyotini aks ettirishga intilaman. Respublikamiz miqyosida qator ko'rgazmalar tashkil qildik, shuningdek, Toshkent va Qirg'iziston, Rossiyada ham ijodiy ishlarim namoyish etildi. Turli xalqaro va milliy tanlovlarda qatnashib, zafar quchdim.

Minbarga chiqqach, o'zimizni tutib turolmadim, hayajondan qalbm titrardi. So'zim va she'rini eshitgan davlatimiz rahbari ishtiyoqimni qalbam his qildi hamda meni 2 xonali uy bilan ham mukofotladi. Bu yuksak e'tibor uchun minnatdorlik bildiraman.

Kelgusida ham ushbu yuksak rag'batga munosib bo'lib, so'z va adabiyot oldidagi muqaddas burchimni bajarishga intilaman. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, qalbu shuuriga Vataniyotni singdirish yo'lida hormay-tolmay mehnat qilaman.

"Xalq so'zi".

Fakt va raqamlar

Mamlakatimiz xotin-qizlari hayotidagi katta o'zgarishlar dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda

Xususan,

O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoqning "Parlamentdagi ayollar" reytingida 92 pog'ona yuqorilab, 36-o'rinni egalladi;

"Gender tenglik va boshqaruv" indeksida 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi;

Jahon banking "Ayollar, biznes va qonun" hisobotida esa o'z pozitsiyasini 43 pog'onaga yaxshilab, 48-o'ringa chiqdi.

Muqaddas ATAYEVA,
Urganch shahridagi yakka tartibdagi tadbirkor, gul yetishtiruvchi, "Shuhrat" medali sohibi (Xorazm viloyati):

— Ba'zan katta ishlar kichik orzudan boshlanadi. Shu ma'noda, bir paytlar tomorqamning chekkasiga shunchaki bir nechta gul ko'chati ekkandim. O'sha paytda bu ish burchalik kengayib ketadi deb o'ylamagan edim. Yillar o'tib qararasam, tomorqamning bir qarich yeri ham bo'sh qolmabdi. Issiqxonani 2018-yilda tashkil qilganmiz. O'sha paytlarda 50 ming dona gul urug'ini ekib, ishni ikki-uch



nafar ayol bilan boshlagandik. Hozirda mahallamizning 10 — 15 nafar ayoli bilan mehnat qilmoqdamiz. Xorazm tuprog'i ancha sho'r. Bu yerda dehqonchilik oson emas. Ammo harakatda bo'lgan odam yo'lini topadi. Bilimimiz va tajribamizga tayanib, tuproqqa ishlov berib, gul yetishtirish sirlarini o'rgandik. Har bir ko'chatga

go'yo farzanddek qarab, mehr bilan parvarishlayapmiz.

Mana shunday katta maqsadlar yo'lida astoydil javlon urib ishlayotgan kech sham payti issiqxonada gul ko'chatlari parvarishi bilan band edim. Dugonalarim birin-ketin telefon qilib tabriklashni boshlashdi. Sababini bilgach esa ham hayron, ham lol qoldim: axir, yurtimning shunday yuksak mukofotiga sazovor bo'lish har qanday insonga katta hayajon va cheksiz quvonch bag'ishlaydi-da! Bu e'tirof qalbimni to'liqlantirib, zimmamga yanada katta mas'uliyat yuklaganini his etdim.

Latifat AMIROVA,
erkin ijodkor, shoira, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi (Qashqadaryo viloyati):

— Ko'ksingizda yuksak mukofot ramzi sifatida nishon porlab turar ekan, zimmangizdagi mas'uliyat har qachongidan oshganini his etasiz. Shu bilan birga, bugungacha qilgan mehnatlaringiz qadr topganidan beixtiyor ko'zlaringiz namlanadi, yuragingiz hayajonlari zavqqa to'ladi.

Ta'kidlashim joiz, o'tgan yillar men uchun ijodiy yutuqlarga boy davr bo'ldi. Xususan, ijod namunalari Ozarbayjon, Turkiya,



Birlashgan Arab Amirliklari, AQSH, Hindiston, Italiya, Keniya kabi qator o'lkalarda matbuotida e'lon qilindi. Shuningdek, Duniyo yosh turk yozarlari birligi, Turkiyaning Oyinid shoir va yozuvchilar jamiyati hamda Qozog'iston Respublikasidagi "Qo'sh qano" ijodiy uyushmasi a'zosisiga aylandim. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Turkona", Turkiyada "Yo'lovchi" nomli kitobim

nashr etilgan ham menga yanada ilhom bag'ishladi.

Yurtboshimizning adabiyotga, ijod ahliga, kitobxonlikka qaratgan e'tibori kishini behad quvontiradi. Men ko'p mamlakatlarda bo'ldim va hech birida yozuvchi-shoirlarga yurtimizdagi qadar imkoniyatlar yaratilganini ko'rmadim.

Taqdirlash marosimida Prezidentimiz qo'lidan mukofotini qabul qilib olish uchun chiqar ekanman, xayolimdan "Bir og'iz gapirsam, yuksak e'tibor uchun Yurtboshimizga minnatdorlik bildirsammikan?" degan o'y kechdi.

Minbarga chiqqach, o'zimizni tutib turolmadim, hayajondan qalbm titrardi. So'zim va she'rini eshitgan davlatimiz rahbari ishtiyoqimni qalbam his qildi hamda meni 2 xonali uy bilan ham mukofotladi. Bu yuksak e'tibor uchun minnatdorlik bildiraman.

Kelgusida ham ushbu yuksak rag'batga munosib bo'lib, so'z va adabiyot oldidagi muqaddas burchimni bajarishga intilaman. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, qalbu shuuriga Vataniyotni singdirish yo'lida hormay-tolmay mehnat qilaman.

"Xalq so'zi".

Joriy yilda farmatsevtika tarmog'ida ishlab chiqarish hajmini 8,5 trln. so'mga yetkazish sohani rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilandi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nabavchi muharrir F. Borzov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonamanzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6